

YANGI O'ZBEKISTON VA YANGI KONSTITUTSIYA

Egamberganov Xursandbek Faxriddin o'g'li

Xorazm viloyati yuridik texnikumi 2-bosqich o'quvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1576233>

Annotatsiya. Ushbu maqolada 2023-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining yangi konstitutsiyasi mazmuni, uning milliy va xalqaro huquqiy tamoyillar bilan uyg'unlashuvi hamda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tizimga ta'siri, davlatning fuqarolarga nisbatan ma'suliyatini oshirish va inson huquqlarini kafolatlash borasidagi yangi normalar havola etilgan. Yangi Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklari, davlat boshqaruvi tizimi, sud hokimiyati mustaqilligiga qaratilgan o'zgarishlar o'r ganilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Konstitutsiyasi, huquqiy islohotlar, inson huquqlari, davlat boshqaruvi, sud tizimi, qonun ustuvorligi, shaxsiy erkinlik.

Abstract. This article examines the content of the new Constitution of the Republic of Uzbekistan adopted in 2023, its alignment with national and international legal principles, as well as its impact on the social-economic and political system. It highlights the state's increased responsibility towards its citizens and the introduction of new norms to ensure human rights and freedoms. The article also explores the reforms aimed at strengthening the independence of state governance, the rule of law, and personal liberties in the new Constitution.

Keywords: Constitution of Uzbekistan, legal reforms, human rights, state governance, rule of law, system, supremacy of law, individual freedom.

Insoniyat tarixi ixtirolarga juda boy, shu ixtiolar natijasida hayot rivojlanib yashash uchun imkoniyatlar kengayib boradi. Insoniyat tarixida insonlarni aql zakovati mahsuli sifatida ixtiro qilingan va taraqqiyotga katta hissa qo'shgan ixtirolardan biri Konstitutsiyadir. U dastlab alohida bir maqsad, vazifani bajarish uchun vujudga kelgan bo'lsa, keyinchalik uning vazifalari kengayib bordi. Dastlab Konstitutsiyaning o'ziga to'xtaladigan bo'lsak, Konstitutsiya davlatimizning eng asosiy qonunidir. Konstitutsiya atamasi qadimgi Rimdayoq bor edi, misol qilib aytadigan bo'lsak Amir Temur "Tuzuklar" i Sharq va Osiyo mamlakatlari svilizatsiyasiga xos alohida shakldagi Konstitutsiyaviy hujat xususiyatiga ega bo'lган. Undan tashqari birinchilardan bo'lib Konstitutsiya AQSH da ham vujudga kelgan bo'lib uning to'g'ridan to'g'ri vazifasi hokimiyat bo'linish prinsipi o'rnatish bilan, davlat hokimiyatini cheklash, tartibga solish bo'lib, shu orqali insonning erkinligini taminlash bo'lган. Undan keyingi Konstitutsiyalar, hokimiyat va inson munosabatida inson manfaatlari ustuvorligini taminlash yo'lidan bordi. Keyingi qabul qilinayotgan Konstitutsiyalarda inson masalasi Konstitutsiyaning dastlabki boblarida berilmogda.

1991-yildagi O'zbekistonning mustaqilligi o'z konstitutsiyasini mustaqil qabul qilish imkoniyatini berdi. Konstitutsiya loyihasini tayyorlashda demokratik xorijiy mamlakatlar Konstitutsiyalarini, xalqaro normalarini o'rganish, tahlil qilish natijasida bo'lajak Konstitutsiyamizda inson huquqlari bosh masala qilib olindi. Konstitutsiyaning 2-bo'limi "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb nomlanib uning 6 ta bobi inson huquqlariga bag'ishlandi. Unda barcha fuqarolarning millatidan qatiy nazar qonun oldida tengligi belgilandi. Konstitutsiyamizda barcha millatlarni hamma sohada tengligi taminlanganligi

bekorga urg'u berayotganimiz yo'q. Chunki ayrim eng demokratik davlatlar Konstitutsiyalarida ham shu mamlakatdagi asosiy millat mavqeい yuqori qo'yilishi hollari mavjud. Masalan Germaniya Konstitutsiyasining 3-moddasida "Barcha kishilar qonun oldida teng" degan qoida mavjud, lekin uning bir necha qoidalarida tegishli huquq nemislargagina tegishliligi ko'rsatilgan. 11- moddasida "Barcha nemislar federatsiyaning hududida erkin ko'chib yurishi mumkin" degan qoidalar bor. Bunday holatni O'zbekiston Konstitutsiyasida uchratmaysiz. O'zbekiston fuqarosi qaysi millatga mansub bo'lmasin barcha konstitutsiyaviy huquqlardan birdek foydalananadi.

O'zbekistonda 2023-yilda yangi tahrirda Konstitutsiya qabul qilinishi masalasi ko'tarilganda, unda inson huquqlarini yanada kengaytirish, inson huquqlarini taminlash mexanizmini, inson huquqlarini taminlashda davlat masuliyatini kuchaytirish zarurati mavjudligidan kelib chiqildi. Bu haqda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatnomasida "Yangi o'zbekistonga mos bo'lган konstitutsiyani har tomonlama o'ylab, shoshilmasdan ishlab chiqish kerak"ligini takidlab o'tdilar.

Yurtimizda 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinishi orqali Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslari yaratilib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. Referendum ko'p millatli buyuk xalqimizning birdamligi va hamjihatligi, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurishga qat'iy qaror qilganligining ishonchli ifodasi bo'ldi.

Konstitutsiyamizdagи qo'shimcha va o'zgarishlarini yangi holatlarda ko'rishimiz mumkin. Avvalo Konstitutsiya oliy yuridik kuchga egaligi, to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi hujjat ekanligi belgilandi. Inson huquq va erkinliklari bevosita amal qilishi, inson huquq va erkinliklari qonunlarining, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilashi, inson bilan davlat organlarining o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi belgilab qo'yildi.

Konstitutsiyamizda inson huquqlari va erkinliklari ancha kengaytirilishi bilan yangi huquqlar va qoidalar belgilandi. Bunga misol qilib aytadigan bo'lsak, o'lim jazosi taqiqlanadi, insonni shani va qadr-qimmati daxlsizdir, hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas, hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uni ozodligi boshqacha tarzda chekshanishi mumkin emas. Shaxsnинг sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emasligi to'g'risidagi qoidalarni o'rnatalishi insonparvar davlat yo'lidan borayotganimizni ko'rsatadi.

Konstitutsiyamizda fuqarolarning siyosiy sohadagi huquqlari ham kengaytirildi, unga mutlaqo yangi "O'zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar" degan qoida kiritildi. Bu fuqarolarning davlat boshqaruv ishlarida ishtirokiga teng imkoniyat yaratadi. Konstitutsiyada homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirishni taqiqlovchi qoidani kiritilishi esa, ayollarni jamiyatdagi o'rni munosib bo'lishiga qaratilgan etibordir.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli ekanligi, har kim qonunchilik va xalqaro shartnomalarga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalardan foydalanim bo'lingan bo'lsa insonning barcha huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat qilishga haqli ekanligi belgilandi.

Fuqarolar agar sud orqali ximoya qilishning boshqa barcha vositalardan foydalanim bo'lingan bo'lsa, sudda ko'rib chiqilishi tugallangan muayyan ishda sud tomonidan o'ziga nisbatan qo'llanilgan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to'g'risidagi shikoyat bilan Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishga haqli, degan qoida bunga misol bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatda ham o'z o'rniqa ega. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishganidan so'ng turli hil tashkilotlarga azo bo'lib, xorijiy mamlakatlar bilan turli hildagi aloqalarni yo'lga qo'ydi. Bu borada yangi O'zbekiston tashqi siyosatining eng muhim o'ziga xos belgilari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, barcha an'anaviy hamkorlar, shuningdek, yaqin va uzoq xorij davlatlari bilan munosabatlarni o'rnatishda pragmatizm, tashqi aloqalarda iqtisodiy pragmatizmni mustahkamlash;

Ikkinchidan, mamlakat tashqi siyosatida ko'p tomonlamalik tamoyilini ilgari surish, globallashuvning ijodiy jarayonlarini rivojlantirish, muloqot, o'zaro ishonch va bir-birining manfaatlarini hurmat qilishga asoslangan o'zaro manfaatli va teng huquqli xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish;

Uchinchidan, davlatimizni dunyoning faol va tadbirkor mamlakatlaridan biriga aylantirish.

Buni 2017-2022 yillarda birgina BMT doirasida O'zbekiston Prezidenti tomonidan xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash, ta'lim, ma'naviyat, ekologiya, turizmni yanada rivojlantirish, inson huqlarini himoya qilish va boshqa sohalarda 30 dan ortiq tashabbus ilgari surilgani ham tasdiqlaydi. Davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan so'ngi yillarda BMT Bosh Assambleyasining 7 ta rezolyusiyasi qabul qilindi va bularning barchasi, albatta, BMTga a'zo davlatning eng faol va samarali rahbari sifatida e'tirof etilgan Prezident Shavkat Mirziyoyev siyosatning bemisl muvaffaqiyatidir.

Xulosa qilib shuni aytamanki inson huquqlarini Konstitutsiyada belgilanishi bir tomoni, Konstitutsiyalarda u turlicha va har tomonlama belgilanishi, chiroyli so'zlar bilan yozib qo'yilishi mumkin. Bunga misol qilib Sovet davridagi Konstitutsiyalarda ham inson huquqlari yaxshi belgilangan edi, lekin ularni amal qilishi qoniqarsiz edi. Shuning uchun Konstitutsiyamizda inson huquqlari keng va mukammal belgilanishi bilan muammolar hal bo'lmaydi. Ularni amal qilishini taminlovchi kuchli mexanizm va sharoitlar lozim. Bu haqda Prezidentimiz "Hammamiz yaxshi tushunamizki, qonunlarni qabul qilish-bu ishning bir qismi faqat. Asosiy masala-qonunlarning mazmun mohiyatini xalqimizga va masul ijrochilarga o'z vaqtida yetkazish, ularning ijrosini to'g'ri tashkil etish hamda qonun talablariga qatiy amal qilishni taminlashdan iboratdir" degan so'zları ham buni ko'satadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 17 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi F-53-son farmoyishi// qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi
2. Konstitutsionnoye pravo zarubejnix stran: ucheb. Dlya vuzov / pod ob. Red. M. V. Baglaya.- M; NORMA, 2010.- S. 431-438
3. Konstitutsii mira (Sbornik konstitutsiy gosudarstv mira. t. 1) Sostaviteli i avtory vvedeniye, vступител ыых statey U.Tadixanov i A.X.SAIDOV.- T.: Akademiya MVD,1997. – S. 360-342
4. Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqining Konstitutsiyasi. T: "O'zbekiston", 1977 yil.
5. O'zbekiston Respublikasining 1992-yil 8-dekabrdagi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021. – 76 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri). – T.: Yuridik adabiyotlar publish, 2023. – 112 b
7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni katiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.- T.: O'zbekiston, 1-jild, 2017. – B. 107.
8. O'zbekiston Prezidentining 2023 yil 8 maydag'i " Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-67-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.05.2023 y., 06/23/67/0269-son
9. Lex.uz sayti
10. https://constitution.uz/oz/pages/inson_huquqlari2
11. [https://kun.uz/news/2023/05/02/yangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish](https://kun.uz/news/2023/05/02/yangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F05%2F02%2Fyangi-konstitutsiya-10-ta-asosiy-ozgarish)
12. <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/news/m11846>